

**“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishida ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida
dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Yangi avlod issiqlik izolyatsiyali polimer kompozit devor panellarini ishlab chiqish va qurilish amaliyotiga joriy etish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: mahalliy xomashyo, polimer bog‘lovchilar hamda yuqori samarali issiqlik izolyatsion materiallar negizida energiya tejamkor va ekologik jihatdan xavfsiz yangi avlod polimer kompozit devor panellarini ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqiladi; tashqi devorlar uchun issiqlik izolyatsiyali kompozit panellar yaratiladi; ichki devor va pardevor panellari yaratiladi; yuk ko‘taruvchi yengil devor panellari yaratiladi; sanoat va fuqaro binolari uchun fasad panellari yaratiladi; modulli binolar uchun polimer kompozit devor panellari yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan polimer kompozit devor panellari akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarda mexanik, fizik-mexanik, issiqlik o‘tkazuvchanligi, shovqin izolyatsiyasi, yong‘inga bardoshlilik, namlikka, atmosfera ta’siriga va uzoq muddatli ekspluatatsion sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish. Scopus va Web of Science bazalarida indeksatsiyalangan xalqaro ilmiy jurnallarda hamda mahalliy ilmiy nashrlarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi hamda tajriba-sanoat sinovlarini o‘tkazuvchi korxonaning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.